

## MAKTAB TA'LIMIDA KASBGA YO'NALTIRISHDA PSIXOLOGNING AHAMIYATI

*Raimjanova Guljamol Umarjanovna*

*Andijon viloyati Jalaquduq tumani*

*MMTBga qarashli 25-maktab amaliyotchi psixologi*

**Annotatsiya:** Agar kasb to'g'ri tanlangan bo'lsa, inson uchun mehnat quvonch, ijodiy ilhom manbaiga aylanadi, bu esa inson uchun ham, jamiyat uchun ham foydalidir.

**Kalit so'zlar:** maktab, globallashuv, kasb, qiziqish, interfaol usul, ta'lim, layoqati va qiziqishlar, o'quvchi.

Muhtaram yurtboshimiz Sh.M.Mirzyoyev ta'kidlaganidek, "Biz ta'lim va tarbiya tizimining barcha bo'g'inlari faoliyatini bugungi zamon talablari asosida takomillashtirishni o'zimizning birinchi darajali vazifamiz deb bilamiz. O'quvchilarning kasbga bo'lgan qiziqishlarini o'stirish, kasbga mehr-muhabbat uyg'otishda qo'llaniladigan interfaol usullarni o'quv jarayonida qo'llashning tub maqsadi dars qaysi shaklda bo'lmasin, qayerda o'tkazilmasin o'qituvchi bilan o'quvchining hamkorlikda ishlashini tashkil etishdan iborat. Maktab — o'qituvchi rahbarligida yosh avlodga ma'lumot beriladigan va tarbiyaviy ishlar olib boriladigan o'quv tarbiya muassasasi. Hozirgi globallashuv jarayonida intizomli, mas'uliyatli, sabr-bardoshli, diyonatli, vijdonli, iymonli, e'tiqodli, bag'rikeng, insonparvar, ijtimoiy faol va shu kabi oliyjanob fazilatlar egasi bo'lgan yoshlarga yashash uchun zarur bo'lgan barcha qulayliklarni vujudga keltirishga qodir bo'la oladilar. Ijtimoiy taraqqiyotning demokratik rivojlanish jarayoni shaxsning o'z-o'zini anglashi, qadrqimmatini qay darajada e'zozlashi, jamiyat uchun xizmat qila olish imkoniyati va harakatlariga ham bevosita bog'liq. Bularning barchasi shaxsning kasbiy qadriyati bilan bog'liq.

Hozirgi davrda yoshlarni transformatsiya bo'layotgan global jamiyatlar hayoti va maqsadlari bilan uzviy bog'lash, yoshlarning ijtimoiy jamiyatdagi o'z o'rnini topishiga ko'maklashish muhim ahamiyat kasb etamoqda. Ta'lim tizimini jamiyatning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, ma'naviy o'zgarishlari bilan uzviy bog'lash zarur vazifaga aylanmoqda.

Umumta'lim tizimida interfaol usullarni qo'llashda o'qituvchilar uchun quyidagi talablarni tavsiya qilamiz:

- ta'lim jarayonida ilg'or pedagogik texnologiyalarning maqsadi, mohiyatini, taraqqiyot bosqichlarini bilish;

- ilg'or pedagogik texnologiyalarni o'quv fani maqsadiga muvofiq tanlay olish va amaliyotga tadbiiq etish;
- pedagogik tamoyillarga to'laqonli amal qilish barobarida o'z ustida tinmay izlanishlar olib borish;
- interfaol dars shakllarining an'anaviy darsdan ustunligini anglash va har ikkala dars shakllaridan o'rinli foydalanish malakasiga ega bo'lish;
- o'quvchi shaxsiy sifatlaridagi o'ziga xoslik munosabatlarini yakdil anglay olish va induvidial mahorat orqali yondashish malakasiga ega bo'lish;
- darsda o'quvchilarning ijodkorligi, dunyoqarashi, jamiyatda o'z o'rnini topa olishi uchun shart-sharoit yaratish, fan va madaniyatning eng so'nggi yutuqlari asosida ularni hayotga tayyorlashning samarali shakl va uslublarini amalda qo'llash.

Yangi pedagogik texnologiyalar asosida dars o'tish jarayonida talabalarda o'zlashtirish yuqori bo'lish bilan birga, yo'naltirilgan kasblariga mehr-muhabbat paydo bo'lishi, mustahkam kasbiy mahoratga ega bo'lishlari va buning hayotdagi muhim ahamiyati haqida ham ongli tushunchani hosil qilishlari, tanlagan sohasiga qiziqishlari yanada oshishi tabiiydir. Jamiyatda ta'lim tizimini rivojlantirishning strategik yo'nalishi – bu insonning turli sohalarida maqsadli mustaqil faoliyati asosida uning intellekt va ahloqiy rivojlanishidir. Jahonning rivojlangan davlatlari qatori mamlakatimizda ham ta'limdagi islohotlar jarayonida mustaqil ta'limni rag'batlantirish muhim yo'nalish sifatida kelmoqda.

Maktab amaliyotchi psixologining o'quvchilarni rivojlantirish sxemasi; A.Zokirov, K.Farfieva, G.Burxonova, S.Alimxodjaeva. Kasb-hunarga yo'naltirish jarayonida o'quvchi shaxsini o'rganish metodikalari.- T: 2006 yil

— o'quvchilarning kasblar haqidagi fikrlarini kengavtirish,ularning qobiliyat va imkoniyatlarini aniqlash.

— o'quvchilarning bilim hamda motivlarini shakllantirish intellektual va ijodiy imkoniyatlarni rivojlantirish hamda ularning kasblar dunyosi haqidagi fikrlarni kengaytirish:

— o'quvchilarda kasbga bo'lgan qobiliyatlarini aniqlash, ularning iiodiy qobiliyatlarini rivojlantirish. ularni ma'lumotnoma va entsiklopedik adabiyotlar bilan tanishtirish.

— o'quvchilarni iuzluksiz kasb hunarga yo'naltirish, psixologik-pedagogik diagnostik

— metodikalar asosida kasbiy qiziqishi, layoqati,motivi va qobilyatlarini erta yoshdan yo'naltirish.

Ma'lumki, har qanday jamiyatning ravnaqi, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy barqarorligi uning faqarolarining aqliy jihatdan yetukligi va axloqiy salohiyatining yuksak darajada rivojlanganligiga bog'liq. Asrlar davomida saqlanib kelinayotgan xalqning boy intellektual merosi hamda umuminsoniy qadriyatlar asosida madaniyat,

ma'rifat, fan-texnologiya va iqtisodiyotning yangi yutuqlari asosida mukammal tayyorgarlikdan o'tgan kadrlarni tayyorlashning yangi tizimini shakllantirish O'zbekiston Respublikasi taraqqiyotining muhim shartlaridan biridir. Shu jumladan ta'lim, ilm-fan sohasida ham bir qator o'zgarishtirishlar kiritilmoqda. Bu o'zgartirishlar bevosita kelajak avlodning barkamol shaxs bo'lib yetishishiga xizmat qiladi.

Ta'lim muassasalarida ta'lim olayotgan o'quvchi yoshlarda umumiy o'rta ta'limni davom ettirish uchun zarur bo'lgan savodxonlik, bilim, ko'nikma va malakalar asosida shakllantirish, ta'lim oluvchilarga bilim, ko'nikma va malakalarning zaruriy hajmini berish, ularda mustaqil fikrlash va tahlil qilish qobiliyatini rivojlantirish maqsadida barcha shart-sharoitlar yaratilgan. Kasblar bo'yicha birlamchi bilim, ko'nikmalarni shakllantirish uchun professional tashxislash va kasb-hunarga yo'naltirish bo'yicha choralar amalga oshirilmoqda<sup>1</sup>. Bugungi kunda har bir insonning kasblar olamida o'z-o'zini topishi, kasbiy o'zligini anglashi, jamiyatda o'z o'rnini topishga intilishi va unga qiziqishlari kun sayin ortib bormoqda. Minglab kasblar ichida qaysi birini tanlash, unga shaxs moyilligi, layoqati va qiziqishlarining mos kelishi yoki kelmasligini bilish shaxs istiqbolida muhim ahamiyat kasb etadi.

Ayniqsa o'quvchi- yoshlarni kasbga yo'naltirish umumta'lim maktabi ishining tarkibiy qismidir. Ma'lumki, agar kasb to'g'ri tanlangan bo'lsa, inson uchun mehnat quvonch, ijodiy ilhom manbaiga aylanadi, bu esa inson uchun ham, jamiyat uchun ham foydalidir. Shu o'rinda psixologlarimiz ta'kidlaganidek, insonning o'zi hohlagan kasbni erkin tanlashi nihoyatda katta ahamiyatga ega. Inson sevgan ishi bilan shug'ullansa, u bu ishdan xursand bo'lishi, qanoat hosil qilishi, ko'p tashabbus ko'rsatishi, charg'imag'ayrat bilan ishlashi mumkin.

#### **Foydalangan adabiyotlar.**

1. A.Zokirov, K.Farfieva, G.Burxonova, S.Alimxodjaeva. Kasb-hunarga yo'naltirish jarayonida o'quvchi shaxsini o'rganish metodikalari.- T: 2006 yil
2. Z.T.Nishanova, M.Xolnazarova. Psixologik xizmat.Toshkent – 2017. 6;13,14-betlar
3. A.Jalalov KASB QANDAY TANLANADI. 2010 Y. 62 b.
4. I.A.Karimov Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori.1998.17b
5. Kaykaus. "Qobusnoma" T., 1994 y. 26 b.
6. Gurevich K.M. Дифференциальная психология и психодиагностика. 2008 y. 21b.